

## **O'QISH DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING BOG'LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR**

Abduraxmonova Gulasal Ravshanovna

NamDU "Boshlang'ich ta'linda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi"  
kafedrasи o'qituvchisi gulasalabdurahmonova04@gmail.com +99899 694 01 87

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslarida bog'lanishli nutqini rivojlanirishning texnologiyalari xususida so'z borgan. Qolaversa, o'quvchilar nutqining rivojida o'qituvchilarga foydalanish uchun bir nechta texnologiyalar ko'rsatib o'tilgan.

**Tayanch so'zlar:** o'qituvchi, o'quvchi, til, so'z, nutq, talaffuz, mahorat, ijodkorlik, o'qish savodxonligi, hikoya qilish

Abdurakhmanova Gulasal Ravshanovna is a teacher of the department  
"Methodology of teaching social and humanitarian sciences in primary education"  
of NamSU

gulasalabdurahmonova04@gmail.com +99899 694 01 87

### **Annotation:**

This article talks about the technologies of developing the connected speech of elementary school students in reading classes. In addition, several technologies for the use of teachers in the development of students' speech are shown.

**Key words:** teacher, student, language, word, speech, pronunciation, skill, creativity, reading literacy, storytelling

### **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tiliniyanada rivojlanirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlanirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi"da belgilangan vazifalardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki,

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan.

Hozirgi paytda yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Dunyo davlatlari orasida O'zbekiston Respublikasida birinchilardan bo'lib umumbashariy tavsifga ega mazkur muammoni hal etishga doir konseptual-nazariy asoslar yaratildi va tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda o'qish fani o'quvchilarining tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda o'qish ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq mакtabda muvaffaqiyatlari ta'lim olish qurolidir. Bog'lanishli nutqni o'stirishda uch yo'naliш aniq ajratiladi:

- 1) so'z ustida izlanish.
- 2) so'z birikmasi va gap ustida izlanish.
- 3) bog'lanishli nutq ustida izlanish.

Ko'rsatilgan uch yo'naliш parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishslash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlami taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirish yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarining ko'pchiligi o'z fikrini

ifodalashga qiynaladi, uni mantiqan izchil bayon qila olmaydi, bog‘lanishli jumlalarni noto‘g‘ri yoki noo‘rin tuzadi. Zero, ular hali gap qurilishini, mustaqil gaplarning o‘zaro bir-birlari bilan bog‘lanish shartlaridan xabardor emas. Shuning uchun o‘qish darslarida amalga oshirilayotgan o‘quvchilarda nutq o‘stirish borasidagi harakatlarning o‘qish darslarida matn ustida ishlashga oid mashqlar bilan uzviy bog‘lab olib borilishini ta‘minlash maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarda og‘zaki nutqini o‘stirish bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda asosan, bolalaming og‘zaki nutqini o‘stirish bilan birga nutqni grammatik tomondan to‘g‘ri shakllantirishga:

- nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish;
- sodda va qo‘shma gaplar tuzish, bunda barcha so‘z turkumlaridan foydalanishga o‘rgatish, bolalami gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe’lga to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish;
- tovush va so‘zhami to‘g‘ri talaffuz etishga, ravon gapireshga;
- mustaqil hikoya qilishga e’tibor beriiadi.

Og‘zaki nutqini o‘stirishda mustaqil hikoya qilishga o‘rgatish katta o‘rin egallaydi: bolalalami o‘z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalari tuzishga o‘rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog‘langan, ma’lum izchillikda, grammatik tomondan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini individual shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq rivojining tarbiyasi individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish va o‘quvchilar nutqining ravonligini rivojlantirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqning o‘sishini mustaqil tahlil qilish, o‘zaro har tomonlama tavsifnomalar, o‘qituvchining kuzatishlari asosida amalga oshadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida nutq muomalasi haqida, “Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?” mavzusida suhbat o‘tkazish.
2. Nutqiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilingan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni yengish.

3. Nutqda pedagog uchun muomalaning hissiy juhatdan qulay bo'lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan taqqoslash.

4. Nutqiy muomalada o'z individual uslubiy pedagogik muomalaning tarkibiy qismlarini egallash sohasidagi ishlar.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi,

shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir

o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyatiga ega. Ta'lif oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun darsni shunday tashkil etish nazarda tutiladiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni amalda qo'llab, ongli va faol egallab oladigan, ijodiy tashabbuskorligi va o'quv faoliyatida mustaqilligi, tafakkuri, nutqi rivojlanadigan bo'lsin. bugungi kunda o'qitishning keng qo'llanadigan - o'qituvchi tomonidan dars mavzusi ma'ruza shaklida tushuntirish metodi orqali o'quvchilar darsni 50 -60% o'zlashtira oladi, agar darsni turli mutimediya va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida ko'rsatib tushuntirilsa o'zlashtirish darajasi 70 – 80% ga yetishi mumkin. Pedagoglar tomonidan darsning samarsini yanada oshirish

maqsadida, dars jarayonida o'quvchining yanada faolligini oshirish orqali darsning o'zlashtirish

darajasini 90% gacha oshirish yo'llari o'ylab topildi. Ya'ni, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchi darsga qiziqadi, hamda darsning diqqat bilan tinglaydi, zamonaviy texnologialar asosida tashkil etilgan darsni kuzatadi, dars yaknida esa o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan o'yin texnologiasi yordamida o'quvchilar o'zlarining biliblarini yanada chuqurroq o'zlashtirishlari imkonи bo'ladi. bu yangi metodlarni ayniqsa, boshlang'ich sinfarda qo'llash maqsadga muvofqdir. Sababi, boshlang'ich sing o'qituvchiining asosi vazifasi o'quvchilarini darsga qiziqtirishdan iborat bo'ladi.

Bizga ma'lumki, o'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiraman.



## «Bog'lanishlar»

"Tabiatdagi bog'lanishlar" o'yini. Bu usul o'quvchilarning og'zaki bog'lanishli nutqini samarali o'stiradi, darsning rivojlantiruvchi maqsadini amalga oshiradi. Buning uchun bizga ikkita kub kerak. Har bir tomonda biron bir tabiiy narsaning nomi yozilgan: quyosh, havo, tuproq va boshqalar. Bolalar kubiklarni uloqtiradi, tuproq biriga, qush boshqasiga tushadi. O'qituvchi: Sizning vazifangiz ushbu tabiiy ob'ektlar orasidagi aloqalarni topishdir. Kim topsa, harakat shunga o'tadi. O'quvchi: Qurtlar tuproqda rivojlanadi, qushlar esa ularni yeishadi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'quvchi tabiatdagi ya'ni real hayotdagi voqealar asosida ikkita predmet o'rtasidagi bog'liqlikni anglagan holda bog'lanishli nutq hosil qiladi. Bu usulni yana bir yaxshi tomoni shundaki, bola o'zi nutq tuza olmasa o'zgalar nutqini ko'chirma gap tarzida ham ifoda etishi mumkin.

## “Kubik”

O'qituvchi o'qish darsida o'tilgan ixtiyoriy hikoyadan bog'lanishlar o'yini uchun quyidagi so'zlarni ajratib olamiz: Taxminan,

1-guruh uchun: Yakshanba kuni, Uy, Zarifjon, Ayol, odam, rahmat.

2-guruh uchun: pul, Nazokat opa, do'kon, Yomon, mehmon, voqeа.

Ushbu so'zlarni tanlab oldik, kubik tomonlariga joylashtirdik. O'yin qoidasiga binoan kubiklarni uloqtiramiz va o'yinni boshlaymiz. 1-guruuhga Zarifjon, 2-guruuhga esa yomon so'zi tushdi, endi ikkala guruh ishtiropchilari ushbu ikki so'zni ishtirop ettirib bog'lanishli nutq tuzishlari kerak bo'ladi, qaysi guruh oldin nutq tuzsa shu guruh baholanadi.

Nutq quyidagicha bo'lishi mumkin. Zarifjon yomon odatlar haqida bobosi bilan suhbatlashdi, bobosi unga yomon odatlar haqida juda ko'plab ma'lumotlar berdi, endi Zarifjon yomon odatlarni qilmaydigan bo'ldi.

## "Ikki kishining siri" (Yaxshi-yomon usuli) o'yini

Bugun havo bulutli. Bu yaxshi, chunki darsda harakat qilish qulayroq. Qulayroq o'rganish yomon, chunki siz sinfda uxlab qolishingiz mumkin. Dars paytida uxlab qolish yaxshi, chunki siz darsdan keyin sport tadbirlari paytida dadil bo'lasiz. Sport musobaqalari paytida dadil bo'lish yomon, chunki ko'p energiya haddan oshib, yomon natijalarni ko'rsatishi mumkin. Yomon natijalarni ko'rsatish yaxshi, chunki bu sizni sport rejimini saqlashga va yaxshiroq mashg'ulot o'tkazishga majbur qiladi va hokazo.

O'quvchilarga shunga o'xshab qarama-qarshiliklarni aniqlashga qaratilgan topshiriqlar berish kerak. Bunday o'yinlardan so'ng, bolalar hamma narsada qarama-qarshilikni topib, atrofdagi dunyoda osongina harakat qilishadi.

### **"Fokal ob'ektlar"** (Bog'lanishlar) usuli

Bu o'yin aqliy faoliyatni hamda o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishni kuchaytirishning muhim usuli hisoblanadi. Asosiy texnikalar o'xshashlikdir. Odadta yaqin atrofda ishlatilmaydigan so'zlar orasidagi bog'lanishni qidirish. Masalan: "Soat qo'lga olinmaydigan narsaning homiysi", "Tarozi - bu ajoyib tartib". Shunga o'xhash texnikalardan foydalanib o'quvchilar mustaqil jumlalar tuzadilar.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Mazkur interfaol o'yinlardan foydalanganda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi.

Interfaol usullar yangi materialni yuqori sifatli o'zlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun maktabda o'qitishning innovatsion usullari bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi, o'rganilayotgan materialni tizimlashtirish va umumlashtirishga, muhokama qilish va bahslashishga o'rgatadi. O'zlashtirilgan bilimlarni idrok etish va qayta ishlash orqali o'quvchilar ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladilar, muloqot tajribasiga ega bo'ladilar. Shubhasiz, innovatsion o'qitish usullari an'anaviy usullardan afzalliklarga ega, chunki ular bolaning rivojlanishiga hissa qo'shadi, uni bilish va qaror qabul qilishda mustaqillikka o'rgatadi hamda bog'lanishli nutqini rivojlantiradi.

### **Adabiyotlar ro`yxati:**

1. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. – T.:O'qituvchi, 2010.66-bet
2. Abduraxmonova G.R. "Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda innovatsion ta'lim



texnologiyalaridan foydalanish” ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ Выпуск журнала № 14 Часть-1\_ Февраль 2023 2181-3187

3. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.:Sharq, 2010. 110-bet
4. Mamarajab Tojiyev, bo‘ri Ziyamuxamedov, Mavjuda O‘ralova “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI LOYIHALASh” «Tafakkur-bo‘stoni», 2012.
5. Muhiddinov A.G’. O’quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O’qituvchi, 2015. 78-bet
6. N.X. Avliyakulov, N.N. Musaeva “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA” «Tafakkur bo‘stoni»Toshkent- 2012
7. www.ziyonet.uz 5. www.lib.ru